UO‘K 634.711

ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA REMONTANT MALINA NAVLARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASH

Xakimova Muxlisaxon To’xtasin qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Meva-sabzavotchilik va uzumchilik” kafedrasi stajori,
Andijon viloyati,
muhlisaolimova2108@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22766925

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan malinaning remontant malina mevalarining sifat ko‘rsatkichlari, bir tupdagi meva og‘irligi olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan. Shuningdek mevalarning bir tupdagi hosil hamda hosildorligi yuqori bo‘lgan maqbul malina navlari tavsiya qilingan.
Kalit so‘zlar: malina, nav, hosildorlik, eng yirik meva, 100 dona, meva, vazni, hosildorlik, mevalar soni.

Абстрактный. В статье представлены результаты исследований показателей качества и массы плодов с куста у ремонтантных сортов малины, выращиваемых в условиях Узбекистана. Кроме того, рекомендованы оптимальные сорта малины, характеризующиеся высокой урожайностью с куста и общей продуктивностью.
Ключевые слова: малина, сорт, урожайность, самые крупные плоды, 100 ягод, плод, масса, продуктивность, количество плодов

Kirish. Dunyo bo‘yicha malina yetishtirish hajmi 886,5 ming tonnani tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi xo‘jag‘at ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Rossiya Federatsiyasida malina ishlab chiqarish 197,7 ming tonnani tashkil etdi, bu x o‘jag‘at ishlab chiqarishning 22,30% ni tashkil qiladi. Malina yetishtirish bo‘yicha yetakchilik qilayotgan davlatlar Rossiya Federatsiyasi (197,7 ming tonna), Meksika (165,7 ming tonna), Serbiya (110,6 ming tonna), Polsha (103,9 ming tonna) va Amerika Qo‘shma Shtatlari (81, 2 ming tonna) bo‘lib, ushbu davlatlar malina ishlab chiqarish hajmining 74,34 foizini tashkil qiladi. Boshqa davlatlarda esa jami 227,4 ming tonna malina yetishtiriladi [1,3,5].

Malinaning shifobaxshligi qadim zamonlardan ma’lum. Uning quritilgan gulidan olinadigan damlamasi ilon va chayon chaqqanda qo‘llanilgan. Tarkibida shakar, organik kislotalar, S, R, V9 vitaminlari hamda gemotogen birikmalarining garmonik birikkanligi malina mevasini yara kasalliklari, kamqonlik, qon tomirlari o‘tkazuvchanligining buzilishi kabi turli xastaliklarda juda foydalidir [2,4,6,7].

Malina yuqori nafas yo‘llariga antiseptik ta’sir ko‘rsatish hamda shamollashning oldini olish xususiyatlariga ega bo‘lgan antibiotiklarga boy [8,9.].

Mevasining tarkibida shakar 5-10% gacha, organik kislotalar 0,5 dan 2,5% gacha V1, V2, V6, V9, V12, S, D Ye, RR, R, K vitaminlar, oshlovchi moddalar, bo‘yovchi moddalar (1,5% gacha), fosfor, temir, tuzlar, pektin (0,5-0,9%) bor Malinaning ho‘l mevasi murabbo, sharbat, jem, kompot, qiyom va hokazo tayyorlashda foydalaniladi [2,3,4,6,9,].

Tadqiqot uslublari va materiallari

Akademik Maxmud Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytadqiqot institutining Andijon ilmiy tajriba xo‘jaligida malina navlarini o‘rganish

bo‘yicha 2025 yil mobaynida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Ilmiy tadqiqotlar Butun Rossiya meva ekinlar seleksiyasi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan “Mevalar, rezavor mevali va yong‘oq o‘simliklari navlarini o‘rganish usuli va dasturi” (Oryol 1999) asosida o‘tkazildi.

Hosilni biologik hisob qilish bitta shox va bitta kurtak yuklamasini o‘rganish, shuningdek hosil o‘g’irlangan yoki payxon qilinishi natijasida tajriba bo‘lmasiga zarar yetkazilgan hollarda hosilni aniq belgilash uchun o‘tkaziladi. Lenta qilib ekilgan malinada xar bir bo‘lmada 3 m 2 lenta maydoni ajratiladi. Rezavor mevalarning bitta shoxdagi, bitta o‘lchov metrdagi o‘rtacha soni aniqlanadi, rezavor mevaning o‘rtacha og’irligiga ko‘paytiriladi, o‘lchov metridagi hosil topiladi va gektar hisobiga aylantirilib hisoblanadi. Tajribalar 2025 yilda olib borilib, jadvallar o‘rtacha uch yillik natijalar asosida taxlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida turli ekologik guruhga mansub malinaning 4 ta navlari tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Mevalarning o‘rtacha vazni yozgi hosilda eng yuqori Gerakl navida (6,7 g) qayd etilgan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarda Avgustina (5,3 g) navlari joylashgan. Eng past ko‘rsatkich esa Progress navida (3,8 g) kuzatilgan. Bu holat Gerakl navining yirik mevali genotipga ega ekanligini ko‘rsatadi. Eng yirik mevalar ham aynan Gerakl navida (9,0 g) aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich tijorat jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki yirik mevalar bozorboplikni oshiradi.

Jumladan, 100 dona mevaning umumiy vazni bo‘yicha ham Gerakl navi yetakchi o‘rinni egallab (665,4 g), boshqa navlarga nisbatan ustunlik qilgan. Aksincha, Progress navida bu ko‘rsatkich 332,4 g ni tashkil etib, mevalarning nisbatan mayda ekanligini ko‘rsatadi. 100 g mevadagi dona soni bo‘yicha esa teskari bog‘liqlik kuzatildi: Progress navida 27 dona, Gerakl navida esa 14,7 dona meva aniqlandi.

Kuzgi hosil natijalari yozgi hosilga nisbatan barcha navlarda ma’lum darajada pasayganligi aniqlandi. Jumladan, Progress navida hosildorlik 520,1 g ni, Maravilla navida 546,6 g ni tashkil etgan. Eng yuqori kuzgi hosil Gerakl navida (610,2 g) qayd etilgan. Bu esa ushbu navlarning vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida ham barqaror hosil berish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. (1-jadval).

1-jadval

Malina navlarining mevalarining sifat ko‘rsatkichi va bir tupdagi hosildorlik (2025- yil.)

Navlar	Bir tupdagi hosil, g			Meva vazni	
	2025 yil	bir dona meva o‘rtacha vazni, g	eng yirik meva vazni, g	100 dona meva vazni, g	100 g mevalar soni
yozgi hosil					
Progress	675,6	3,8	5,1	332,4	27,0
Maravilla	823,2	5,0	8,1	460,4	20,0
Avgustina	691,6	5,3	8,3	524,1	19,0
Gerakl	801,2	6,7	9,0	665,4	14,7
kuzgi hosil					
Progress	520,1	3,3	4,9	324,1	30,7
Maravilla	546,6	4,7	7,4	481,4	21,3
Avgustina	595,2	4,7	7,5	485,8	21,7
Gerakl	610,2	6,2	7,4	617,1	17,0

Kuzgi hosilda ham mevalarning o‘rtacha vazni bo‘yicha Gerakl navi yetakchilik qilgan (6,2 g), bu esa uning genetik jihatdan yirik mevali nav ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Avgustina navida (4,7 g) yirik mevali bo‘lib, Progress navida bu ko‘rsatkich eng past (3,3 g) bo‘lib qolgan. 100 dona meva vazni kuzgi hosilda ham Gerakl navida eng yuqori (617,1 g) bo‘lgan, Progress navida esa eng past (324,1 g) qayd etilgan. 100 g mevadagi dona soni bo‘yicha esa Progress navida eng yuqori (30,7 dona), Gerakl navida esa eng past (17,0 dona) ko‘rsatkich kuzatilgan. Bu yana bir bor meva yirikligi va soni o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Gerakl va Maravilla navlari yuqori hosildorlik va yirik meva hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi. Progress navi esa nazorat sifatida olingan bo‘lib, boshqa navlarga nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Natijalari shuni ko‘rsatadiki, malina navlarini tanlashda nafaqat umumiy hosildorlik, balki meva sifati ko‘rsatkichlari meva vazni, yirikligi bo‘yicha Gerakl va Maravilla navlari alohida ajralib chiqdi.

Xulosa.

1 Remontant malina navlaridan olingan yozgi hosil taxlil qilingada o‘rtacha bir tupdagi hosili bo‘yicha nazorat naviga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich Maravilla navida aniqlandi**.**

2 Remontant malina navlaridan olingan kuzgi hosil taxlil qilingada o‘rtacha bir tupdagi hosili bo‘yicha nazorat naviga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich Gerakl navida aniqlandi.

3 Remontant malina navlaridan 100 dona meva vazni va 100 g mevalar soni taxlil qilingada o‘rtacha eng yuqori ko‘rsatkich Gerakl navida aniqlandi.

REFERENCES

1. Abdullaev R.M; Yagudina S.I. Garden berries. –T.: Mehnat, 1988, p: 37-69.
2. Khilola Ravshanovna Abdullaeva, Akhmadjon Abdukodirovich Kosimov, Muxlisa Tuxtasin Kizi Xakimova Studying the drought-resistance of berry plants // Science and Education. 2023. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/studying-the-drought-resistance-ofberryplants (data obращeniya: 14.11.2023).
3. Kosimov, A. (2019). The study of heat resistance of Golden Currant (Ribes aureum Pursh) varieties. International Journal of Research and Development, 4(112), 30-32.
4. Mavlyanovich, A. R., Ravshanovna, A. K., & Abdukodirovich, K. A. (2020). Studying the drought-resistance of berry plants. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 304-315.
5. Abdukodirovich, K. A. (2022). INFLUENCE OF FORMATION METHODS ON PLUM YIELD AND TRADITIONAL FRUIT CHARACTERISTICS. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(1), 47-54.
6. Abdukodirovich, K. A. (2021). THE EFFECT OF DIFFERENT METHODS OF PRODUCTION ON THE PRODUCTIVITY OF CHILD VARIETIES AND THE COMMERCIAL CHARACTERISTICS OF FRUITS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(11), 411-415.
7. Ravshanovna, A. K., & Abdukodirovich, K. A. (2021). PROMISING VARIETIES OF GOLDEN CURRANTCULTIVATED IN THE CONDITION OF UZBEKISTAN.
8. Abdullaeva, K. R., Kosimov, A., & Tadjiboev, K. R. (2021). The Growth and Development of Raspberry Cultivars in the Condition of Uzbekistan. JournalNX, 7(05), 40-43.
9. Tadjiboyev, X.R. (2024). SCIENCE AND EDUCATION INAGRICULTURE, Journal,2 (2)174-180.